

BOSHLANG 'ICH SINIF O'QISH DARSLARIDA YOSH AVLOD MA'NAVIY- MA'RIFIY TARBIYASINI YUKSALTIRISHDA HADIS MATERIALLARNI O'RGATISH

A. X. Najmiddinov,

BuxDPI Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi 2-kurs magistranti

Mubinova Aziza Mansur qizi

BuxDPI O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

Аннотация

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy-ma'rifiy tarbiyasini shakllantirishda hadis va rivoyatlarning o'rni hamda ahamiyati darsliklarda berilgan hikoyalar orqali ochib berilgan. Har bir o'quvchi, ayniqsa boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'nani kamol topishida hadisning o'rni yuksakdir. Biroq yosh o'quvchi hadisning ma'nosini anglay olishi biroz qiyinlik qiladi. Shuning uchun boshlang'ich sinflarda hadislar turli hikoya va rivoyatlar orqali yoritib berilganki, bu hikoyaning ma'nosini anglagan o'quvchi o'zi uchun yetarli bo'lgan tarbiyaviy xulosani chiqara oladi.

Аннотация

В данной статье через рассказы, приведенные в учебниках, раскрывается роль и значение хадисов и сказаний в формировании духовно-просветительского воспитания учащихся начальных классов. Хадисы занимают большое место в духовном развитии каждого ученика, особенно учеников начальной школы. Однако юному ученику несколько трудно понять смысл хадиса. Вот почему хадисы объясняются в начальных классах через различные рассказы и рассказы, чтобы ученик, понимающий смысл этого рассказа, мог сделать достаточный для него воспитательный вывод.

Abstract. In this article, the role and importance of hadiths and narrations in the formation of the spiritual and educational education of primary school students is revealed through the stories given in the textbooks. Hadiths have a great place in the spiritual development of every student, especially elementary school students. However, it is somewhat difficult for a young student to understand the meaning of the hadith. That's why hadiths are explained in primary classes through various stories and narrations, so that the student who understands the meaning of this story can make an educational conclusion that is sufficient for him.

Boshlang'ich sinflarning o'qish darslari o'z mohiyati, maqsad va vazifalariga ko'ra ta'lim tizimida alohida o'rin tutadi. Negaki uning zaminida savodxonlik va axloqiy-ta'limiy tarbiya asoslari turadi. O'qish darslari orqali o'quvchilarning Davlat ta'lim standartlari (DTS) talablari

<https://conferencea.org>

bo'yicha o'zlashtirishlari ko'zda tutilgan o'quv biluv ko'nikma-malakalari hamda bilimlarni egallashlariga yo'l ochiladi. Aynan o'qish ta'limida insonning, avvalo, o'zligini, qolaversa olamni anglashga bo'lgan intilishlariga turtki beriladi. O'qish darslari oldiga qo'yiladigan didaktik vazifalardan biri bo'lgan o'quvchilarni kitobdan foydalanishga, undan kerakli bilimlarni olishga o'rgatish, kitobga muhabbat uyg'otish; ularni oddiy kitobxondan chuqur mulohaza yurituvchi, ijodkor kitobxon darajasiga ko'tarish ham aynan shu maqsadga qaratilgan.

4-sinf Ona tili va O'qish savodxonligi kitobi AQSH xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID) orqali Amerika xalqining qo'llab-quvvatlashi yordamida tayyorlangan.

Darslikda berilgan "Maktub" hikoyasidagi ikki obraz Munisxon va uning Yulduz ismli dugonasi orqali nuroniylarni e'zozlashga, ularni asrab-avaylashga, qadrlashga, duolarini olib farovon hayot kechirishga chaqiriq va undov mavjud desak mubolag'a bo'lmaydi. Munisxonni buvijonisi betob bo'lib, kasalxonaga tushib qolgan paytda uni shashti past bo'ladi, u buvijonisini juda ham yaxshi ko'rar edi, uni qo'msab ko'zlariga yosh keladi. Dugonasi Yulduznikiga borganida uning buvisining aytgan gaplarini nazarga ilmayotganini ko'rib, unga nasihati bergan uning tarbiyasi, ma'naviyatli, kattalarni hurmat qiladigan qiz ekanligidan darak beradi. O'sha paytda Yulduzha buvisi havo sovuq va yomg'ir tomchilash ehtimoli bo'lgani uchun soyabon tutishini aytadi, u esa buni rad etadi. Nuroniylar-uyimizning farishtalari. Bejiz: Do'stlar, yaxshilarni avaylab saqlang,

Salom degan so'zning salmog'in oqlang.

O'lganda yuz soat yig'lab turgandan, Uni tirigida bir soat yo'qlang, deb aytilmagan.

Ular bizning ota-onamizni dunyoga keltirishgan, ularni ko'z-qorachig'idek e'zozlab, avaylab kamolga yetkazishdan. Ular hech qachon bizga yomonlikni ravo ko'rishmaydi, ularning ko'ngillarni shod, dillarini xushnud qilib yashash bizning asosiy vazifamiz ekanligi ushbu hikmat orqali ifodalab, tasvirlab berilgan. «Nabiy sollallohu alayhi vasallam: «Kichiklarimizga rahm qilmagan, kattalarimizni qadrlamagan bizdan emas», dedilar. Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning bizdan emas deyishlari juda og'ir so'zdir. Bu musulmon emas, mening ummatim emas deganlaridir. Nima uchun yoshi kattalarni qadrlash, yoshlarga rahm qilish naqadar yuksak maqomga, Islom bilan teng darajaga qo'yilmoqda? Chunki agar bu narsa yo'qolsa, yoshlarning izzati, keksalarning hurmati yo'qolsa, insonning qadri yo'qoladi, hayot barbod bo'ladi. Odobning ta'rifida quyidagiga o'xshash gaplar kelgan: «Maqtovg'a sazovor so'z va amalni qilish odobdir». «Karamli axloqlarni ushlab odobdir». «O'zingdan kattani ulug'lab, o'zingdan kichikka mehr ko'rsatish odobdir». Bu va shunga o'xshash ta'riflar to'planganda Islomda ko'zlangan «odob» ta'rifi yuzaga keladi. Yoshlarni kattalarga hurmat, ularga mehr-oqibat ko'rsatish ruhida tarbiyalash barcaning burchi. Axir ular faqat farzandlarining baxtli va maqsadli ulg'ayishlarini xohlashadi. Bu kelajak uchun ular qattiq

<https://conferencea.org>

mehnat qilishadi. Zotan, insonni ulug‘lash, e‘zozlash, kattalarni hurmat, kichiklarni izzat qilish dinimizning maqsadlaridan biridir.

Shuningdek, 4-sinf Ona tili va O‘qish savodxonligi kitobida berilgan "Qarisi bor uyning parisi bor" she'riy shaklda yozilgan hikmatlarda ham yuqorida aytilgan fikrlarimiz ilgari surilgan. Ushbu she'riy shakldagi hikmatda bosh qahramon Temurbek. Uni har tongda mehribon, farishta buvijonisi uyqudan uyg'otadi, unga nonushta tayyorlab beradi. Unga boshidan kechirgan qiyinchiliklarni, mashaqqatlarni, bir dona non sotib olish uchun necha kunlab navbatda turganini, insonlarning ochlik tufayli vafot etganini ayta turib, hozirgi zamonda yaratilib berilayotgan keng ko'lamli imkoniyatlar; yoshlarning har tomonlama qo'llab-quvvatlanayotganligi, internetning bugungi kunda odamlar hayotida tutgan o'rni qanchalik yuksak ekanligini, XXI asrda barcha shart-sharoitlar, qulayliklar yaratib berilayotganini alohida ta'kidlab, nabirasini ta'lim olishga, bilim egallashga, ilm ummoniga sayohatga chiqishga, tomirida Manguberdidek mard ajdod qoni oqayotganini, Beruniydek bilag'onlik shuurida jo'sh urib turganini, Navoiydek ilm ummonidan ko'plab marvarid-u durlar tera olishi mumkinligini tushuntiradi, unga hayotiy saboq va tarbiya berishga jon-jahdi bilan harakat qiladi. Darhaqiqat bizning beqiyos va bebaho qadriyatlarimizdan biri bu tabarruk yoshdagi insonlarni hurmat qilishdir. Ha, darhaqiqat bunday insoniy fazilatlar hamma jamiyatlarda ham uchrayvermaydi. Bobokalonlarimizdan me'ros bo'lib kelayotgan odatlarimizning negizida muqaddas islom dinimiz ko'rsatmalari poydevor bo'lgan.

Islom dini bizlarni bir ishdan oldin kengashishga, kattalar, yoshi ulug‘lar bilan maslahatlashib olishga chorlaydi. Xalqimiz nazdida qatriyat darajasiga ko‘tarilgan bu ishlar, aslida ilohiy topshiriq bo‘lib, Alloh taolo Qur‘oni karimda: “Ishlaringizda ular bilan maslahatlashing”, demoqlik bilan Rasulini sahobalar bilan maslahatlashishga buyurmoqda. Demakki, biz ushbu ilohiy ta’limotga amal qilgan holda, ishlarimizni maslahatgo‘ylarimizning tavsiyalariga binoan olib borishga harakat qilmog‘imiz darkor.

Qadriyat tushunchasi bu o‘zlikni anglash demakdir. O‘zligini bilgan inson esa majburiyatlarini mukammal ado etadi, o‘zgalar haq-huquqini poymol qilmaydi, elu xalqqa ko‘plab manfaatlar keltiradi. Bunday kishilari ko‘pchilikni tashkil etadigan jamiyatlar esa tanazzuldan yiroq, kelajagi esa porloq bo‘ladi. O‘zimiz uchun zarur xulosalar va saboqlar chiqarishimiz maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Boshlang‘ich ta‘lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta‘lim standarti // “Boshlang‘ich ta‘lim” jurlani № 5, 2005.

<https://conferencea.org>

2. Qosimova Q va boshqalar. “Ona tili o‘qitish metodikasi”. Toshkent “Noshir”, 2009 yil.
3. G‘oziyev E. Meliboyeva V. Ijodiy tafakkurni rivojlantirish usullari //“Xalq ta‘limi” jurnali № 3, 2009.
4. O‘quvchi ma‘naviyatini shakllantirish. T.: —Sharq, 2000-yil.
5. Sahihi Buxoriy. Hilol nashr. 1991-yil.